



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



YOSHLARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI

Faxrod Egamberdiyev

*Axborot Texnologiyalari va Menejment Universiteti
Boshlang'ich ta'lif fakulteti 1-bosqich guruh rahbari*

O'lmasova Durdona O'ktam qizi

*Axborot Texnologiyalari va Menejment Universiteti
Boshlang'ich ta'lif fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning pisixalogiyasiga ta'siri va ularning rivojlanishidagi pisixologik o'zagarishlarni, hozrgi kunda pisixalogiyani inson hayotidagi o'rni va tushunchalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yoshlarning pisxalogik rivojlanishi, pisixalogiyaning inson hayotidagi o'rni, pisoxalogiya tushunchasi, pisixalogik omillar.

Kirish. Pisixalogiya fani juda qiziqarli va hali to'liq o'rganilmaga fan. Pisixalogiya fani - inson ongini va inson miyasi turli vaziyatlarda o'zizni qandey tutishni o'rgatadi. Pisixalogiya inson hayotining muhim takibiy qismidir, chunki bizning hayotimiz asab tizimini qo'zg'atadigan va stress va tajribalarga to'la. Inson pisixikasiga ko'plab omillr ta'sir qiladi, birinchi navbatda bu yosh har qandey insonni hayoti davomida turli xil pisixalogik muammolar ta'qib qilinadi.

Hozirgi zamon psixologiyasi ko'p tarmoqli psixologik bilimlar tizimidan iborat fan hisoblanib, o'zining tadqiqot predmetiga ega bo'lgan ko'plab sohalardan tashkil topgan: umumiy psixologiya, aviatsiya psixologiyasi, harbiy psixologiya, differensial psixologiya, psixofiziologiya, muhandislik psixologiyasi, kosmik psixologiya, huquq psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, neyropsixologiya, patopsixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, sport psixologiyasi, maxsus psixologiya, ijodiyot psixologiyasi, menejment psixologiyasi, marketing psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, tashkiliy psixologiya, din psixologiyasi, oila psixologiyasi, psixologiya tarixi, genetik psixologiya, amaliy psixologiya, eksperimental psixologiya, kasb psixologiyasi, psixolingvistika, siyosiy psixologiya va boshqa psixologiyaning tarmoqlarga ajralishining asosiy sababi uning tarkibida tatbiqiy sohalar vujudga kelishidir. Psixologiya sanoatda, jamiyat boshqaruvida, ta'lif tizimida, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, transport, radio, televideniye va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda. Psixologiya erishgan yutuqlari shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ularni harakatga keltirishda alohida ahamiyat kasb qilmoqda hamda shu asnoda mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir o'tkazmoqda.

Yoshlarning psixologik rivojlanishi

Yosh psixologiyasi - turli yosh dagi odamlar xususiyatlarini, bir yosh davridan boshqa yosh davriga o'tishda ularning psixik rivojlanishini o'rganuvchi psixologiya fani sohasi odamning tug'ilganidan boshlab to keksaygunicha bo'lgan davr (ontogenet)da amalgalashtiriladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



oshadigan ruhiy rivojlanishi va shakllanishi bosqichlarini o‘rganadi.Yosh psixalogiyasi mustaqil fan sifatida 19-asrning oxirlarida shakllandı. Dastavval bolalar psixologiyasi sifatida yuzaga kelgan. Yosh psixalogiyasi uzoq vaqt bola ruhiy rivojlanishi mexanizmlarini o‘rganish bilan cheklanib kelgan, biroq insoniyat taraqqiyotining keyingi darajalari odam ontogenetik rivojlanishini yanada kengroq va chuqurroq o‘rganishni taqot etganligi munosabati bilan bu fanning tadqiqot doirasi kengayib bordi. Hoz. vaqtga kelib Yoshlar psixalogiyasining bolalar psixologiyasi, yetuklik davri psixologiyasi, gerontopsixologiya (keksalik psixologiyasi) kabi sohalari farqlanadi. Amaliy psixologiya - bu inson xulq-atvorining amaliy ma'nosini o‘rganadigan fan. Agar siz ushbu fanni chuqur o‘rgansangiz, u balog‘at yoshi, ijtimoiy tafakkur va umuman, butun hayoti davomida inson bilan sodir bo‘ladigan barcha psixologik o‘zgarishlar kabi hodisalarni o‘rganishini bilib olishingiz mumkin.

Inson hayotida psixalogiyaning o‘rni

Zamonaviy dunyoda inson har doimgidan ham ko‘proq psixologiyaga muhtoj. Axir, har birimiz stress va muammolar bilan o‘ralganmiz. Zamonaviy bolalarning qo‘rquv yoki stressdan psixologik shikastlanishlari tez-tez uchraydi. Bolalar psixologik kasalliklarga juda moyil, chunki zamonaviy dunyoda shahvat, buzuqlik, zo‘ravonlik hamma joyda mavjud. Kompyuter juda katta ta’sirga ega, chunki agar bola bolaligidan shafqatsiz o‘yinlarni o‘ynasa, keyinchalik bu shafqatsizlik uning o‘ziga va yaqinlariga zarba beradi.Psixalogiya umman olganda butun dunyoda kotta yoshdan to kichik yoshgacha bo‘lgan kishilarning hayotida asosiy o‘rinda turadi.Chunki odam psixikasi dunyoga nisbatano‘zgaruvchan va o‘rganuvchan bo‘ladi. 21-asrga kelib odamlarning turmush tarzi ham o‘zgara boshladi va psixologik maslahatlar va shuningdek psixologik kishilarga murojaatlar ko‘paya bo‘shladi.Bugungi kunga qadar psixologiya fani inson miyasini yashiradigan bilimlarning ozgina qismini o‘rganib chiqdi, chunki uning bilim chegaralari cheksizdir.

Xulosa. Inson hayoti turli hodisa va voqealarga asoslangan bo‘ladi.Va ularni boshqarish va ayan shu hayotimizdagи ayrim voqealar asosida biz tur xil to’siqlarga uchraymiz va biz bu holatda ham o‘zimizni va o‘zligimizni asrab qolishimiz kerakligi va ayni shu narsa inson pisixalogiyasiga doir bo‘ladigan aniq faktlar bo‘la oladi nazarimda.Xullosa qilib aytkanda psixalogiya insoning ruhiy ematsional, va ijtimoiy jihatlarini o‘rganishda biz uchun yordamchi bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.uz.m.wikipedia.org.
2. E., Psixologiya fani XXI ayerda, T., 2002;
- 3.G‘oziyev E., Psixologiya, T., 2003;
- 4.Qodirov B., Layoqat psixologiyasi, T., 1989;
- 5.Shoumarov G‘., Oila psixologiyasi, T., 2000;
- 6.Karimova V., Ijtimoiy psixologiya, T., 1994
- 7.<https://in-academy.uz>

